



Expressions characteristic of the Karluk dialects in Samarkand region and their interpretation in the works of Alisher Navoi

Zilola TILLABAEVA¹

Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute

ARTICLE INFO

Article history:

Received November 2024

Received in revised form

10 December 2024

Accepted 25 December 2024

Available online

25 January 2025

Keywords:

Karluk dialects of
Samarkand region,
Alisher Navoi,
fixed expressions,
literary language,
phraseological unit,
formula,
comparative method.

ABSTRACT

The article delves into the distinctive features of stable combinations characteristic of the Karluk dialects in the Samarkand region, the linguistic peculiarities of Navoi's works, the research conducted by scholars in this field, the achievements made, and the meanings and usage of idioms in the poet's oeuvre. Indeed, the language of Alisher Navoi's works serves as a crucial research source for understanding which words were actively used in the speech of Karluk dialect speakers in the Samarkand region during the 15th century. This is because when the writer resided in Samarkand due to the circumstances of his time, he maintained strong connections with the local population and interacted with numerous teachers, poets, and students. Undoubtedly, this natural process is reflected in the language of his works. Furthermore, the idioms collected from the explanatory dictionary of his works have been compared with field materials.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss1/S-pp116-125>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Samarqand viloyatidagi qarluq shevalariga xos iboralar va ularning Alisher Navoiy asarlaridagi talqini

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

Samarqand viloyati qarluq
shevalari,
Alisher Navoiy,
barqaror birikmalar,
adabiy til,

Maqolada Samarqand viloyati qarluq shevalariga xos barqaror birikmalarning o'ziga xos jihatlari, Navoiy asarlarining til xususiyatlari, bu borada olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar, erishilgan yutuqlar hamda shoir ijodida iboralarning ma'nolari, qo'llanish o'rinlariga alohida to'xtalib

¹ PhD, Independent Researcher, Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute.

frazema,
qolip,
qiyosiy usul.

o'tilgan. Zotan, XV asrlarda Samarqand viloyati qarluq shevalarida so'zlovchi aholi nutqida qanday so'zlar faol qo'llanilganligini bilish uchun Alisher Navoiy asarlari tili muhim tadqiqot manbai sifatida ahamiyatli. Chunki adib Samarqandda zamona taqozosi bilan istiqomat qilgan paytlarda mahalliy aholi bilan mustahkam aloqa bog'lagan, ko'plab mudarris, shoir va talabalar bilan muloqot qilgan. Bu tabiiy jarayon uning asarlari tilida aks etgani, shubhasiz. Qolaversa, asarlarining izohli lug'ati asosida yig'ilgan iboralar dala materiallari bilan qiyoslangan.

Идиомы, характерные для карлукских говоров Самаркандской области и их интерпретация в творчестве Алишера Навои

Ключевые слова:

карлукские диалекты
Самаркандской области,
Алишер Навои,
устойчивые соединения,
литературный язык,
словосочетание,
образец,
сравнительный метод.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются особенности устойчивых сочетаний, характерных для карлукских говоров Самаркандской области, а также языковые особенности произведений Алишера Навои. Анализируются исследования ученых, посвященные этой теме, а также изучаются достижения, значение и сферы употребления выражений в творчестве поэта. Произведения Алишера Навои сегодня являются ценным источником для изучения лексики, активно использовавшейся в речи народов, говоривших на карлукских диалектах Самаркандской области в XV веке. Это обусловлено тем, что во время своей жизни в Самарканде поэт поддерживал тесные связи с местным населением, общался с учеными, поэтами и студентами, что, несомненно, нашло отражение в языке его произведений. Кроме того, устойчивые выражения, зафиксированные в толковом словаре его произведений, были сопоставлены с полевыми материалами, что позволило выявить их соответствие и особенности употребления.

KIRISH

Ma'lumki, adabiy tildagi kabi shevalarda ham munosabat bildirishda, voqeahodisa, narsalarni baholashda faol ishtirok etuvchi lisoniy vositalardan biri frazeologizmlar hisoblanadi. Mazkur til birliklari o'zining funksional-semantik xususiyatlariga ko'ra ham baho ifodalash xususiyatiga ega bo'lgan boshqa lisoniy vositalardan ajralib turadi. "Frazeologizmlar nominativ ma'no va qo'shimcha ottenkalarining ajralmas birligidan iborat bo'lgan maxsus nutqiy figuralardir" [1:39-bet]. Masalan, baho ifodalovchi emotsional-ekspressiv so'zlar, asosan, so'zlashuv va badiiy nutq uchun xos bo'lsa, baholovchi metaforalar badiiy adabiyotda keng qo'llaniladi. Zero, mazkur yo'nalishda ko'plab ilmiy ishlar e'lon qilinib, frazeologik izohli lug'atlar nashr etilmoqda. Jumladan, V.V. Vinogradov, N.M. Shanskiy, A.I. Fyodorov, V. Djonich, A.I. Kazakova, Ye.S. Kogan, Nguen Lan Fiong, V.N. Teliya, Ye.A. Malinovskiy, Yu. Gvozdev, V.P. Jukov, V.M. Mokiyenko, A.G. Nazaryan kabi olimlarning tadqiqotlari diqqatga sazovor.

MUAMMONING O'RGANILISHI VA TADQIQI

O'zbek tilshunosligida frazemalarning shakllanishi va ularning funksional-semantik xususiyatlari Ya. Pinxasov, Sh. Rahmatullayev, A. Hojiyev, B. Yo'ldoshev, A. Mamatov, Abdi Mamatov, A. Isayev, Sh. Abdullayev, Sh. Usmonova, Sh. G'aniyeva, U. Rashidova kabi olimlar tomonidan alohida tadqiq qilingan. Qolaversa, Samarqand davlat universiteti tomonidan "Frazelogiya masalalari" seriyasida nashr qilingan ishlarda iboralarning turli-tuman xususiyatlari ochib berilgan. Shunisi xarakterliki, frazeologizmlarning o'ziga xos ma'no nozikliklari hamma uslubda ham birday ko'zga tashlanavermaydi. Bu xususiyatlar so'zlovchi yoki yozuvchining kommunikativ maqsadiga bog'liq holda namoyon bo'ladi. Frazelogizmlarda o'z tarkibida ishtirok etgan komponentlar yaxlitligida yuzaga kelgan hosila ma'no so'zlovchi munosabatini, nutq obyektini baholashini ifodalashga xizmat qiladi. Shevada ham adabiy tildagi kabi so'zlovchi yoki yozuvchi aloqa jarayonida nutq qaratilgan shaxsning yoshi, jinsi, kasbi, oilaviy yaqinligi, ijtimoiy mavqei kabilar hamda nutqiy vaziyatni hisobga olib o'z kommunikativ maqsadiga xizmat qiluvchi frazeologizmlardan foydalanadi. Bunda u baholashning o'zi kutganday amalga oshirishini ta'minlash uchun frazeologizm tarkibidagi komponentlardan ayrimlarini tushirib qoldirishi, yangi komponentlar hisobiga boyitishi yoki shu asosda mazkur frazeologizmga ifodalangan ma'noni beruvchi yangi ibora hosil qilishi mumkin. Bu so'zlovchi yoki yozuvchining individual xususiyati, ya'ni ijodkorlik mahoratiga bog'liq bo'ladi.

"Lug'aviy birlik hisoblangan so'z, agar u mustaqil ma'noli bo'lsa, gap tarkibida biror bo'lak vazifasini o'taydi. Frazelogizm ham lug'aviy birlik hisoblanadi. Shuning uchun ham uni so'zga teng qo'yib, gap tarkibida biror bo'lak vazifasida keladi, degan fikr ilgari suriladi. Bunda birikma qolipli va gap qolipli frazeologizmlar ham nazarda tutiladi. Biroq bu o'rinda shuni unutmash kerakki, frazeologizm faqat semantik hodisadir. Shu vajdan ham u nutq tarkibida semantik qayta bo'linishni yuzaga keltirsa ham, sintaktik qayta bo'linishni yuzaga keltirmaydi [2:45-bet].

O'zbek xalq shevalari leksikasi turli hudud doirasida tadqiq qilingan bo'lsa-da, biroq shevalar leksikasining ajralmas qismi sanalgan iboralarni tahlil qilib, alohida tadqiq etish olimlarimiz tomonidan hozirgacha to'liq o'rganilgan emas. Bu borada faqat ayrim ishlar bor. Jumladan, olim X. Doniyorovning "O'zbek tili jelashgan qipchoq dialektining frazeologiyasi ustidan kuzatishlar", H. Uzoqovning "Adabiy tilda yo'q iboralar", T. Sodiqovning "Фразеологические единицы узбекских говоров", S. Ashirboyev va Z. Xidiraliyevlarning "Sheva frazeologiyasini o'rganish tajribasidan" kabi sanoqli maqolalar, shuningdek, T. Sodiqovning "Toshkent oblast o'zbek shevalari leksikasi" nomli nomzodlik dissertatsiyasida frazeologizmlarning ayrim xususiyatlarigagina to'xtalib o'tilgan.

Shevalarda frazeologiyalarni o'rganish xalqimiz tilidagi nodir boyliklarni yig'ish bo'lsa, o'zbek adabiy tilda mavjud ko'pgina iboralarning kelib chiqish ildizini, uning variantlarini aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, o'zbek shevalari lug'atini tuzishda katta yordam beradi.

Frazelogik birliklar milliy tilimizning barcha shakllarida keng ko'lamda uchrovchi til hodisasi sanaladi.

O'zbek tilshunosligida frazeologizm, frazeologik birlik, frazeologik ibora, frazeologik birikma, turg'un ibora, ibora singari bir necha xil ko'rinishdagi terminlar (atamalar) bilan yuritilib kelinayotgan atamalar bir-biriga nisbatan sinonim sifatida qo'llanilmoqda [3:133-135-bet].

Bundan shu ko‘rinib turibdiki, iboralar, asosan, ikki va undan ortiq so‘zlardan tashkil topib, so‘z birikmalariga o‘xshaydi. Biroq so‘z birikmalari denotativ, iboralar esa konnotativ xususiyatalarga egaligi bilan farqlanadi, ularning mazkur xususiyatlarini matn mazmunidan ajratishimiz mumkin. Shunday birliklar ham borligini e‘tiborimizdan chetda qoldirmasligimiz kerakki, ular bir o‘rinda frazeologizm, boshqa joyda so‘z birikmasi sifatida talqin qilinadi. Masalan, “boshiga ko‘tarmoq” ibora sifatida *shovqin solmoq*, *e‘zozlamoq* ma’nolariga ega. So‘z birikmasi sifatida biror buyumni boshi uzra dast ko‘tarmoq mazmuniga ega. Bunda u denotativ ma’noga mansub.

X. Doniyorov haqli ta’kidlaganidek, “Tilning juda murakkab bo‘lgan integratsiya va differetsiatsiya jarayonlari asosida taraqqiy etishi, bunday jarayonlar, ayniqsa, tilning o‘zgaruvchan qismi bo‘lgan leksikasida tez va ko‘p yuz berib turishini hisobga olinsa, frazeologizmlarning qaysi til yoki dialektga oid ekanligini aniqlash masalasi ancha qiyin.

Lekin frazeologizmlar sostavida tilning nisbatan turg‘un va chidamli qismi bo‘lgan grammatik va xususan, fonetik xususiyatlar ham mavjudki, ular juda sekin-asta o‘zgarib, asrlar davomida tilning mustahkam yodgorligi sifatida saqlanib qoladi. Mana shu xususiyatlar frazeologizmlarning kimga, to‘g‘rirog‘i, qaysi xalq, qaysi til yoki dialektga mansub ekanligini aniqlab olish mumkin”.

Muallif fikricha, standart iboraning shevaga taalluqli yoki taalluqli emasligining quyidagi o‘lchov mezonlari borligi ta’kidlanadi:

- a) adabiy tilimizda uchrash-uchramasligi;
- b) ma’lum bir shevada gapiruvchi aholining hayoti, turmushi bilan bog‘langanligi;
- d) qadimgi elementlardan qaysi til va dialektlarga mansub bo‘lgan qonuniyat va xususiyatlarni saqlab qolganligiga bog‘liqdir [4:103-bet].

Bizningcha, X. Doniyorov qayd etgan: “... shevalik xususiyatini o‘zida qanchalik aks ettirishiga bog‘liq” degan fikrga dialekt va shevaning leksik xususiyatlarini o‘zida mujassam etganiga ko‘ra deb oydinlik kiritish maqsadga muvofiq. Zero, adabiy tilda qo‘llaniluvchi ayrim iboralarining morfologik, fonetik jihatdan farqlanib ma’lum bir shevada qo‘llanilishini faqat bir shevaga mansub deb qarashga to‘liq imkon bermaydi. Jumladan, X. Doniyorov “faqat qipchoq shevalariga xos” “faqat shu sheva aholisining yakka o‘zigagina tegishli bo‘lgan mulk” deb izohlangan frazeologizmlar ham adabiy tilda, ham turli xil fonetik shaklda bo‘lsa-da, deyarli ko‘pchilik shevalarda qo‘llaniladi: *qatarda nariñ bosa, žukiñ žerda qamajdi* (qipchoq)– *qatārdä nāriñ bosa, jukiñ jerdä qāmājdi* (Samarqand)– *qatorda noring bo‘lsa, yuking yerda qolmaydi* (adabiy til); *erü qatīn – qoş xokkiz* (qipchoq)– *eru xātun– qoş hokis* (Samarqand) – *er-u xotin – qo‘sh ho‘kiz* (adabiy til); *pişagini piş, ijtīniñ murnīni qīñir demaslik* (qipchoq) – *pişagini piş demäjdu* (Samarqand)– *mushugini pisht demaslik* (adabiy til) va hokazo.

Bundan shu ma’lum bo‘ladiki, har bir frazeologiyada qo‘llaniluvchi har qanday so‘z turli-tuman shevalarda leksik, grammatik, morfologik jihatdan o‘ziga xoslik kasb etadi. Shu o‘rinda professor F. Abdullayevning qimmatli fikrlarini keltirib o‘tishni joiz deb bildik: “Jonli til faktlari g‘oyat murakkab tarixiy procestni xalqning o‘tmishdagi hayotini, urug‘dosh va urug‘dosh bo‘lmagan etnik gruppalar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘zida aks ettiradi. Shunga ko‘ra, har qanday leksik-grammatik hodisani u yoki bu shevaga taalluqli ekanligi haqida gapirganda, barcha turkiy tillar yoki ma’lum gruppalar uchun umumiy bo‘lgan leksik-grammatik elementlarni qayd qilish hamda urug‘dosh tillar yoki bir-biriga territorial jihatdan yaqin bo‘lgan, bir tilning ikkita tarmog‘i hisoblangan shevalararo ta’sirning kuchi va salmog‘ini atroflicha, chuqur o‘rganish kabi omillarni nazarda tutishimiz lozim” [5:27-bet].

Shevalardagi iboralarni o'rganishning hozirgi holati, sohadagi muammolar va kamchiliklar, masalaning amaliy ahamiyati haqida S. Ashirboyev, Z. Xidiraliyevlar maqolasida asosli fikrlar keltirib o'tilgan: "O'zbek shevalari leksikasini o'rganish bo'yicha tilshunosligimiz katta tajriba to'plaganligi barchaga ayon, lekin negadir sheva frazeologiyasi tadqiqotchilarimiz e'tiboridan chetda qolib ketmoqda. ...o'zbek shevalarida frazeologik birliklarni qay jihatdan o'rganish, ya'ni adabiy tildagi frazemalarning shevalardagi variatsiyalarini yoki variantlarini o'rganish masalasida tayinli nazariy fikrlar o'zbek tilshunosligida ishlab chiqilmaganligi uchun ham shevalar frazeologiyasi bo'yicha tadqiqotlar olib borilmaganligi ma'lum bo'lib qolmoqda" [6:21-bet].

Dialektal frazeologik birliklar strukturasi

So'zlashuv nutqida, badiiy asarlar tilidagi dialektal frazeologik birliklarni to'plab ularni tadqiq qilish ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lib, o'zbek tilining leksik-frazeologik lug'at boyligining yanada kengayishiga ta'sir qiladi. Zero, biz tahlil qilayotgan obyektimiz Samarqand viloyati qarluq shevalarida muloqot qiluvchi vakillari nutqi bo'lib, ularda uchraydigan dialektal frazeologik birliklar semantik jihatdan xilma-xildir.

Shu bilan bir qatorda o'zbek shevalari frazeologiyasini o'rganish bo'yicha dastlabki qoliplar yaratilgan [6:21-25-bet]. Biz ham mazkur maqolada keltirilgan qoliplarning ayrim ko'rinishlarini Samarqand viloyati qarluq shevalari misolida ko'rib o'tsak:

– sheva frazemasida tarkibidagi har bir so'z adabiy tilda mavjud bo'lsa-da, frazema ma'nosi shevaga xos bo'ladi: *pixi qajtarilgān* iborasi *pix* so'zi va qaytarilmoq so'zlaridan tashkil topgan va o'zbek adabiy tilida xo'rozning *pixi*, qovunni *pix* qilmoq birikmalarida kelishi ma'lum. Shevada ko'chma ma'no kasb etib, uddaburon, olg'ir kishilarga nisbatan qo'llaniladi. *Til bilmās* frazemasida til, bilmas birliklaridan iborat bo'lib, biror tilni bilmaslik birirkmasida keladi. Shevada esa kishilar bilan kelisholmaslik, murosa qilolmaslik mazmuniga ega bo'lsa, *odamni qijmā-qijmā qillmāq* turg'un birikmasi qiyma-qiyma hamda qilmoq so'zlaridan tashkil topgan. Shevada qattiq urish, do'pposlash ma'nolarida keladi;

– frazema tarkibidagi ayrim so'zlarning ma'nosi unutilgan bo'ladi: *ittigājām-pittigājām arāzlamāq* iborasidagi *ittigājām-pittigājām* so'zining ma'nosi shevada unutilgan, lekin ibora faol bo'lib, bo'lar-bo'lmas narsalarga arazlamoq ma'nosida qo'llanadi. *Ātāq-u pātāqni āytāmāq* frazemasidagi *ātāq-u pātāq* birligi alohida olinganda ma'nosi unutilgan, biroq shevada har qanday kishilarni chorlamoq mazmunida sheva ahliga tushunarli.

– sheva frazemasida tarkibidagi ayrim so'z faqat dialektal bo'ladi va frazema ma'nosi ham dialektal bo'ladi: *ālāxān-mālāxān bolmāq* tarkibidagi birinchi so'z adabiy tilda qo'llanmaydi, shevada ushbu ibora bezovta bo'lmoq ma'nosini ifodalaydi. *Qūmārtqisi qurimāq* frazemasidagi birinchi so'z dialektal xarakterga ega bo'lib, shevada xavotirlanmoq, tashvishlanmoq ma'nosida qo'llanadi.

– sheva frazemalari tarkibidagi so'z adabiy tildagi frazema bo'lgan shu so'zning sinonimi bo'ladi: *juraqi ātliqmāq* frazemasida adabiy tildagi shoshmoq, hayajonlanmoq so'zlarining shevadagi sinonimi bo'lib, quvonmoq, sevinmoq ma'nolarida qo'llanadi. *Āñ bolmāq* iborasi adabiy tilda hang-mang bo'lmoq iborasiga formal jihatdan teng kelib, hayron bo'lmoq, ajablanmoq ma'nolariga ega.

Mazkur tahlillardan ko'rinib turibdiki, shevalar frazeologiyasi bo'yicha muammolar talaygina bo'lib, maxsus tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

Ma'lumki, inson nutqi o'ziga xos. Unda tasviriy vositalar, xalq maqollari hamda iboralar ishlatilsa, uning jozibadorligi va ta'sirchanligi yanada oshadi. Kundalik hayotimizda iboralar nutqning ixchamligini va yaxlitligini ta'minlovchi vosita sifatida

qo'llanadi. Zero, frazeologiya til hodisasi sifatida lison va nutqqa daxldor birlikdir. Frazelogizmlar ma'lum bir xalqning ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-iqtisodiy, turmush tarzi hamda o'ziga xosligini yorqin ifoda etadi.

O'zbek tilshunosligida frazeologizmlar bo'yicha ko'plab tadqiqotlar yaratilganligini yuqorida qayd etib o'tgandik. Mazkur ishlarda frazeologizmlarning turli masalalari yetarlicha tahlil qilingan. O'zbek shevalaridagi iboralarning xususiyatlari yuzasidan X. Doniyorov, M. Turobova, T. Sodiqov tomonidan ba'zi bir qator ilmiy maqolalar e'lon qilinganligiga qaramay, ammo hali xalq shevalarida, so'zlashuv nutqida, turli badiiy matnlarda qo'llanilgan frazeologik birliklarni maxsus tadqiq etish masalalari olimlarning e'tiboridan chetda qolib kelmoqda.

Necha ming yillik tarixga ega milliy-madaniy merosimizni, mumtoz adabiyotimizni har tomonlama o'rganish, tadqiq qilish hozirda eng dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda.

Hozirda ham lahja va shevalarda ishlatiladigan xalq atamaları keskin o'zgargani yo'q. Lekin badiiy tilni o'zbek lahjalari materiallari bilan to'ldirayotgan, yuz yillar davomida uning leksik fondini boyitib kelayotgan manbalardan asosiylari o'zbek xalq dostonlari va o'zbek xalq shevalaridir. Hayotimizdagi doimiy ishlatilayotgan, har xil mehnat faoliyatimizga qarashli xalq lahjalari asta-sekin badiiy tilimizga o'tadi [7:173-180-bet].

Alisher Navoiyning xalq shevalariga munosabati

Tilshunoslik faniga o'zining salmoqli hissasini qo'shgan zahmatkash tilshunos A. Nurmonovning ta'kidlab o'tishicha, "Ota-bobolarimiz qoldirgan yozma yodgorliklarni sinchiklab o'rgansak, bu asarlarda tilshunoslikning bir qancha masalalari Yevropa olimlaridan ancha oldin bayon qilinganiga guvoh bo'lamiz" [8:11,15-bet]. Shuningdek, olim mazkur kitobida Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Koshg'ariy, Forobiy, Mahmud Zamaxshariy, Alisher Navoiy, Bobur kabi ajdodlarimizning lingvistik qarashlarini talqin qilgan.

Buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy asarlari nafaqat zamonaviy tilshunoslik taraqqiyoti uchun, balki dialektologiya fani uchun juda muhim, qimmatli manba hisoblanadi. Qolaversa, XV asrlarda Samarqand viloyati qarluq shevalarida so'zlovchi aholi nutqida qanday so'zlar faol qo'llanilganligini bilish uchun Alisher Navoiy asarlari tili muhim tadqiqot manbai sifatida ahamiyatli. Zotan, adib Samarqandda zamona taqozosi bilan istiqomat qilgan paytlarda mahalliy aholi bilan mustahkam aloqa bog'lagan, ko'plab mudarris, shoir va talabalar bilan muloqot qilgan. Jumladan, Fazlulloh Abullays, Muhammad Olim Samarqandiy, Aloyi Shoshiy, Ahmad Hojibek, Xoja Xusrav kabi mudarrislar, Mirzo Xoja Sug'diy, Xarimiy Qalandar singari shoirlar bilan yaqin muloqotda bo'lgan. Alisher Navoiy Samarqandda ta'lim olish jarayonida samarqandlik talabalar bilan yaqindan muloqot qilib nafaqat shahar bilan tanishib, balki shahar atrofidagi qishloqlarda bo'lib, turli sheva vakillari bilan suhbatlashadi. Ko'hak (Cho'ponota) tepaliklarida hamda Zarafshon daryosi bo'ylarida bo'lib, atrofni kuzatgan. Hatto kelajakda yozishni niyat qilgan "Xamsa" asaridagi tasvirlarga materiallarni shu yerda yiqqan [9:67-68-bet]. Buning natijasida shoir asarlarida bevosita Samarqand viloyati qarluq shevalari ta'siri kuzatilgan.

Qolaversa, "Navoiy asarlari dialektik asosiga fonetik jihatdan yondashilsa, hamma o'rinda d belgili dialektning y belgili dialektga o'z o'rnini bo'shatib berganini aniq ko'rish mumkin. Unda Sharqiy Turkiston tilidagi y tovushining protiplari bo'lmish d, dz, z tovushlari joylashish hodisasi deyarli uchramaydi", - deb ta'kidlanadi [10:79-80-bet].

Hozirgacha Alisher Navoiy asarlari til xususiyatlari fanda B. Bafojev, H. Sulaymonov, P. Shamsiyev, A. Hayitmetov, G'. Abdurahmonov, A. Rustamov, E. Fozilov, S. Ibrohimov, A. G'ulomov, X. Doniyorov, F. Abdullayev, E. Umarov, M. Rahmatullayeva, A. Karimov, I. Nosirov, L. Xalilov, Z. Hamidov, N. Husanov, Sh. Sirojiddinov, D. Abduvaliyeva kabi qator o'zbek olimlari tomonidan atroflicha yoritilgan.

Shoir asarlari tilining fonetik xususiyatlari va grammatik strukturasi A.M. Shcherbak, G'. Abdurahmonov, A. Rustamov, E. Fozilov, O. Usmonov, U. Sanaqulov, S. Ashirboyev, B. Yusupov va hokazolarning tadqiqotlarida keng aks etgan.

Professor A.K. Borovkov shoir asarlarining til xususiyatlari Andijon shevasiga mosligini ta'kidlaydi [11:104-bet]. Biz ham shu fikrga qo'shimcha tarzda Samarqand viloyati qarluq shevalariga xos iboralarning ko'plab qo'llanganligiga guvoh bo'ldikki, mazkur shevaning unsurlari shoir ijodida yaqqol ko'zga tashlanadi. Qolaversa, "dialekt va shevalarga xos leksik xususiyatlarni qayd qilish, yozib olish, barcha lingvistik tomonlarini tavsifiy, qiyosiy, qiyosiy-tarixiy tamoyillar asosida atroflicha o'rganish, tadqiq qilish hozirgi zamon o'zbek tilining takomili, tarixini o'rganishda, shu til egasi bo'lgan xalqlar tarixi, etnografiyasini o'rganishda muhim nazariy va amaliy ma'lumotlar beradi" [12:37-bet].

Shu maqsadda biz tadqiqotimizda Navoiy ijodida uchraydigan Samarqand viloyati qarluq shevalariga doir frazeologik birliklarni o'rganishga harakat qilamiz. Biroq haligacha Navoiy asarlarida mazkur shevaga doir iboralarni maxsus tadqiq qilish masalalari tadqiqotchilar e'tiboridan chetda qolib kelmoqda.

Alisher Navoiy asarlarida Samarqand viloyati qarluq shevalariga xos iboralarning ko'plab ishlatilganligining guvohi bo'ldik:

Navoiyning "Majolisun- nafa'is" asarida *ko'ngul ozurda*, ya'ni ko'ngli ranjigan mazmunidagi iboraning asarda alohida estetik ruh bag'ishlaganini ko'rish mumkin: *Ko'ngul firoq xazonining xorlaridin ozurdadur* [13:509-bet].

Bu so'z shevada, shuningdek, ko'ngilning behuzur bo'lish holatini ifodalashini uchratdik: *Ävqät zorli:k qilli. Bi:räm di:li:m äštän soyun äzurdä boli:p turi:pti, dārun joqmi, bäläm?* ("Bog'izag'on" qishlog'i)

Samarqand viloyati qarluq shevalarida qo'llaniluvchi *dast-u po urmoq* iborasi yarim kalkalash usuli bilan yuzaga kelgan bo'lib, adabiy tilda qo'l urmoq degan birlikning sinonimi hisoblanadi: *Kelinim dāst-u pā üriši bilän hamma žāj āzādä bolli qālli* ("Yangi Hayrobod" mahallasi).

Aynan shu frazeologik birlikni shoir ijodida ham kuzatish mumkinligini quyidagi misol orqali ko'rishimiz mumkin:

Ko'p urdumdast-u po, tuttum valek oxir kanor andin...[13:467-bet].

Alisher Navoiy ijodida qo'llanuvchi jozibador mazmunidagi *ātāši:n* so'zi Samarqand viloyati qarluq shevalarida bo'lmoq fe'li bilan birga qo'llanilib, g'azablanish, achchiqlanish ma'nosidagi ibora tarkibida uchraydi: *Hä, nämunčä ātāši:n boläsi:z. Munnoy päsgä tushi:p gāpurun, dugānā* ("Yangiariq" qishlog'i)

Guzär – o'tish joyi, shevada mahalla ma'nosida qo'llanadi. Xususan, Navoiy asarlarida bu so'z *aylamoq* fe'li bilan qo'llanganda, "yo'l olmoq", "yurmoq" ma'nosini, *solmoq* bilan ishlatilsa, "borib ko'rmoq", "xabar olmoq" mazmunini, *qilmoq* bilan qo'shma so'z hosil qilganda, "xayolga kelmoq", "eslamoq" kabi turfa ma'nolar anglatishiga guvoh bo'ldik:

Guzar aylab burungi ravza sori,

Shah-u shahzoda-u dastur bori [13:408-bet].

Samarqand viloyati qarluq shevalarida esa bu soʻz semantikasi biroz oʻzgargan tarzda qoʻllanilib, hovli-joy maʼnosida ham islatilishining guvohi boʻlamiz: *Oylum ozi:gā bālā guzārdān vātān qi:li:p čixti* (“Qorateri” qishlogʻi).

Kušād- ochilgan, yechilish, omad, muvaffaqiyatlilik, imkoniyat, osonlik kabi turfa mazmunga ega polisemantik soʻz hisoblanadi. Adibning nodir asarlaridan biri “Saddi Iskandariy”da quyidagi tarzda uchraydi:

Sanga dagʻi boʻlsa *kushodi* havas,

Bu olamda topmoq murodi havas [13:142-bet].

Samarqand viloyati qarluq shevalarida qoʻl somatizmli iboraning tarkibida kelib, saxiy, saxovatpesha kishilarga xos xususiyatni ifodalaydi: *Xudājām kušād qolgā berādi, munčā qāttixli:k qi:ma, bāččem* (“Andijoni” mahallasi).

Kushoyish yetishti iborasi “Munshaot” asarida xursandchilik, baxtiyorlikka erishmoq maʼnolarida qoʻllanilgan: “To bu vaqtqachaqim, Arslonbek axtachi fath nishonlari bila mazkur boʻlgʻan inoyatnomani yetkurdi. Koʻngulga andin osoyish va koʻzga *kushoyish yetishti*” [13:143-bet].

Shuningdek, Samarqand viloyati qarluq shevalarida qildimoq feʼli bilan birga qoʻllanilib, biror mushkulotga yechim topish niyatida mullalarga oʻqitish mazmunidagi ibora tarzida ham qoʻllanadi. *Bāčāmni bāxti āči:lsun deb bugun guzāri:mi:zdāgi Umār xān eshānā ki:šāji:šgā bāddum* (“Dahbediy” mahallasi).

Y.D. Polivanov Navoiyning asarlari Oʻrta Osiyo tilida yozilganligini qayd etib oʻtadi [14:13-bet].

“Navoiy asarlarining tili oʻz davrida mavjud boʻlgan turkiy sheva, lahja va dialektlarning deyarli hammasining vokalizmini qariyb toʻliq ravishda aks ettirgan. Navoiy tilidagi qisqa hamda choʻziq i unli tovushli oʻsha davrdagi oʻgʻuz-turkman lahjalarining tovush sistemasini toʻliq aks ettirish uchun hamda fors-tojik tilining taʼsiriga kuchli ravishda uchragan Hirot, Samarqand, Buxoro shahar shevalari va ular tipidagi shevalarning tovush xususiyatlarini aks ettirish uchun xizmat qilgan” [15:28-bet].

“Oʻzbek shevalarini oʻrganishda XIX asming oxirlarida paydo boʻlgan qiyosiy-tarixiy metoddan ham foydalanilgan. Oʻzbek shevalari materiallari boshqa turkiy tillar, “Devonu lugʻotit turk”, Qutadgʻu bilig”, Alisher Navoiy asarlari tili va boshqa til tarixi manbalari tiliga qiyoslab oʻrganilgan, lekin bu metod asosiy metod hisoblangan emas, balki tahlil talab oʻrinlarda va ayrim til tarixiga oid maqola va asarlarda uchrab turadi” [16:21-bet].

Qolaversa, A. Nurmonov haqli ravishda shoir ijodining qimmatini haqida gapirib, asarlari xususida quyidagicha yozadi: “Alisher Navoiyning “Muhokamat ul- lugʻatayn” asarining maydonga kelishi bilan dunyo tilshunosligida yangi sahifa ochildi. Tilshunoslikning hozirgi kunda chogʻishtirma (kontrastiv) lingvistika deb yuritiluvchi yangi yoʻnalishga asos solindi. Chogʻishtirma tilshunoslikning oʻziga xos xususiyatlari shundaki, ikki tizimga mansub boʻlgan tillar tilning barcha sathlari boʻyicha bir-biriga solishtiriladi” [17:85-86-bet].

Eski oʻzbek tili boʻyicha maxsus tadqiqotlar olib borgan G.F. Blagova shoir asarlari tili boʻyicha quyidagicha fikr bildiradi: “Nodialektik tasavvuri arab, fors, tojik tillaridan leksik, kam hollarda sintaktik va baʼzan grammatik oʻzlashmalarning haddan tashqari keng qoʻllash hisobiga hosil qilingan. Sir emas, masalan, Navoiy lugʻatining uchdan ikki qismi shunday leksikadan, buyuk shoir tili bayoniga bagʻishlangan monografiyalarda arab, fors va tojik tillari elementlariga keng oʻrin beriladi” [18:225-226-bet].

XULOSA

Samarqand viloyati qarluq shevalarida ham tojik shevalarining ma'lum darajada ta'sirini kuzatishmiz mumkin.

Shuni ta'kidlash lozimki, eski o'zbek adabiy tilida faol qo'llangan iboralarning ma'lum qismi hozirgacha mazkur hudud lahjasida qadimdan ishlatilib kelinmoqda. Ularning ayrim elementlari tojik tili shevalaridan o'zlashgan bo'lsa-da, aholi nutqida hozirgacha faol uchramoqda. Zero, sheva ma'lum bir joyga aloqador bo'lgan bir tilning xususiy boylik emas, balki xalq mulki, xalq or-nomusi, xalq kechmishi va kelajagidir. Hozirgi paytda filologiya fakultetlarida alohida fan sifatida o'qitilayotgan o'zbek adabiy tili, o'zbek tili tarixi, o'zbek shevashunosligi fanlarini o'zaro mushtarak holda tadqiq qilish lozimki, bular mazkur fanlarning boyib, mukammallashib, bir-birini to'ldirib borishiga ta'sir ko'rsatadi. Qolaversa, shevaga oid iboralarni aniqlash, to'plash o'zbek adabiy tilimizning qanday taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tganligini, tilimizning ko'lamini aniqlashda muhim manba bo'lib xizmat qilishi, shubhasiz.

Navoiyning tildan foydalanish mahorati shevashunoslik masalalarini yoritishda katta ahamiyatga ega. Shoir ijodini tilshunoslikning tarixiy-qiyosiy, tavsifiy usullaridan foydalanib tahlil qilish o'zbek dialektologiyasining taraqqiyot bosqichlarini aniqlash, tilimiz imkoniyatlarini yoritish ko'plab yangidan yangi tadqiqotlarning yaratilishida beqiyos o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. Тошкент: Фан, – 1983.
2. Миртожиев М. Ўзбек тили лексикологияси ва лексикографияси. – Тошкент, – 2000.
3. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Морфология. Лексикология.– Тошкент: Ўқитувчи,– 1992.
4. Дониёров Х. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. Тошкент: Фан,– 1979.
5. Абдуллаев Ф. А. Хоразм шевалари лексикаси// Ўзбек шевалари лексикаси.Тошкент: Фан,– 1966.
6. Аширбоев С., Хидиралиева З. Шева фразеологиясини ўрганиш тажрибасидан// Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари мавзусидаги VII Республика илмий-назарий анжумани. Тошкент,– 2015.
7. Ишаев А. Достонлар тилининг баъзи бир хусусиятлари. (Эргаш шоир ва унинг достончиликдаги ўрни). – Тошкент: Фан ,– 1971.
8. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 1-jild.- T.:Akademnashr ,– 2012.
9. Абдиев М. Алишер Навоийнинг халқ шеваларига муносабати// “Alisher Navoiy ijodiy merosining umumbashariyat ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotidagi o'rni” mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari. -Navoiy,– 2018-yil 7-fevral.
10. Турсунов У. Ўринбоев Б. Ўзбек адабий тили тарихи. –Тошкент: Ўқитувчи,– 1982.
11. Боровков А.К. Алишер Навои основоположник узбекского литературного языка. В кН.:Алишер Навои.-М.Л,– 1946.
12. Darvishov I. Dialektal arealning ayrim leksik xususiyatlari// “Til va adabiyot ta'limi” , – 2015.
13. А.Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 томлик. Тошкент: Фан,– 1983-1985.

14. Поливанов Е.Д. Этнографическая характеристика узбеков. Вып. 1. Происхождение и наименование узбеков.-Тошкент,- 1925.
15. Дониёров Х., Санакулов У. Ўзбек тилшунослигининг асосчиси // “Ўзбек тили ва адабиёти”, 1-сон,- 1991.
16. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. TDPU,- 2013.
17. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон,- 2002.
18. Благова Г.Ф. Тюркское склонение в ареально историческом освещении. Москва, – 1982.